



SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025

VOLONTYORLIK - IJTIMOYIY SOHANI
RIVOJLANTIRUVCHI KUCH SIFATIDA

San'atbek Muzaffarov

e-mail: sanatbekmuzaffarov@gmail.com

O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada, insonga yo'naltirilgan universal dizayn, to'siqsiz muhit, ijtimoiy infratuzilmalar, ijtimoiy tadbirkorlik, ijtimoiy loyihalardan innovatsion usulda foydalanishi va ijtimoiy muammolarni samarali yechim va yangi g'oyalar asosida muammolarga volontyorlik orqali yechimlari keltirilgan. O'tkazilgan onlayn so'rovnoma ya'ni ilmiy tadqiqotning natijalari haqida batafsil tahlil etilgan. Eng asosiysi, ijtimoiy volontyorlikning professional yondashuvlar, yo'nalishlar, turlari va foydali tomonlari orqali ijtimoiy sohada samarali ishlashi mumkin bo'lgan yangi taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Ko'ngillilik (volontyorlik), ijtimoiy volontyorlik, ijtimoiy drayver, Ijtimoiy ta'sir, ijtimoiy startap, ijtimoiy birlik, nodavlat notijorat tashkilot, manfaatdor guruh.

Аннотация. В этой статье рассматривается универсальный дизайн, ориентированный на человека, безбарьерная среда, социальная инфраструктура, социальное предпринимательство, инновационное использование социальных проектов и эффективное решение социальных проблем, а также волонтерские решения проблем на основе новых идей. Проведенный онлайн-опрос, то есть, подробно анализирует результаты научного исследования. Самое главное, что благодаря профессиональным подходам, направлениям, типам и преимуществам социального волонтерства



SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025

были выдвинуты новые предложения и рекомендации, которые могут эффективно работать в социальной сфере.

Ключевые слова: волонтерство (волонтерство), социальное волонтерство, социальный драйв, социальное влияние, социальный стартап, социальная единица, некоммерческая организация, группа интересов.

Abstract. This article presents universal human-oriented design, unobstructed environment, social infrastructures, social entrepreneurship, innovative use of social projects and solutions to problems based on effective solutions to social problems and new ideas by volunteering. The online survey conducted is a detailed analysis of the results of a scientific study. The main thing is that new proposals and recommendations have been put forward that can effectively work in the social sphere through professional approaches, directions, types and benefits of social volatility.

Key words: volunteering (volunteering), social volunteering, social drive, social impact, social startup, Social Unity, non-profit organization, interest group.

Kirish. Jamiyat va davlat uchun juda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan faoliyatlardan biri bu - volontyorlik (ko‘ngillilik). Chunki, shaxslar aro munosabatlarni tartibga solishda, mehr-muhabbat tushunchasini yanada ulug‘lashda, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlar harakatni rivojlantirishga ko‘mak beradigan, o‘z xohishi bilan bepul o‘z xizmatlari orqali yordam beruvchi faoliyat. Shu sababdan, yurtimizda ham volontyorlik davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanib va rivojlanib bormoqda. Dunyo bo‘yicha volontyorlikning 300 ga yaqin turli yo‘nalishlari mavjud bo‘lib, ulardan eng ko‘p tarqalgani qismi bu ijtimoiy volontyorlik. Ijtimoiy volontyorlik O‘zbekiston sharoitida ham madaniy va ijtimoiy



SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025

muammolarga yechim topishi mumkin boʻlgan asosiy faoliyatlardan biri boʻlib xizmat qilmoqda.

Ijtimoiy volontyorlik - volontyorlar orqali doimiy yordamga va gʻamxoʻrlikka muhtoj shaxslarga ixtiyoriy hamda begʻaraz yordam berish faoliyati hisoblanadi. Asosan, aholining muhtoj qatlamlari kiradi [1].

Ijtimoiy volontyorlik – ijtimoiy muammolar, ijtimoiy yordamga muhtojlar va ijtimoiy jarayonlarga volontyorlar orqali yechimlar berish hamda volontyorlar orqali yordam koʻrsatish. Ulardan, yolgʻizlar, keksalar, kambagʻallar, nogironligi bor shaxslar, muassasa tarbiyalanuvchilari, muammoli oilalar, ayollar, bolalar, yoshlar va muhtojlarga sifatli ijtimoiy xizmatlar koʻrsatishda volontyorlar orqali faoliyat olib borishdir. Volontyorlikni faqatgina volontyorlar tashkiloti emas, balki barcha davlat va nodavlat notijorat tashkilotlar hamda tashabbuskor guruhlar amalga oshiradi va foydalanadi. Qisqacha aytganda, volontyorlik – ixtiyoriy, begʻaraz va moddiylikni koʻzlamagan tarzda amaliy yordamni bajaruvchilar faoliyatidir. Moliyaviy qarashlar asosida emas, balki yaxshilik uchun, oʻz tajribasini yanada oshirish maqsadida hamda oʻzi va atrofidagilar uchun manfaat keltirish uchun ham bu harakatga qoʻshilishadilar. “Volontyorlik, fuqarolik jamiyati rivojlanishi, ijtimoiy adolat, turmish tarzini yaxshilanishi, yoshlarni qoʻllab-quvvatlash, turli muammolarga fuqarolar ham yechim berishi, masʼuliyat va ijtimoiylashuv kabi jarayonlar uchun juda muhim” deb taʼkidlab oʻtgan [2].

Braian Ludueñaning “Ijtimoiy Volontyorlik nima va qanday qilib ijobiy taʼsir koʻrsatishim mumkin?” maqolasida ham ijtimoiy volontyor sifatida boshqalarga yordam berishimiz oʻzimizga yordam berishimizni anglatishini va bu orqali juda koʻp narsalarni oʻrganish imkoniyatini yaratishini taʼkidlaydi. Oʻrganish natijasida, juda koʻplab ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy volontyorlik haqida kam gapirilgan boʻlsa-da, unga tegishli boʻlgan faoliyat turlari haqida koʻp eslanadi. Misol uchun, med



SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025

volontyor, donor volontyor, xospis volontyor, ijtimoiy patronaj volontyor, ta’lim volontyor, inklyuziv volontyor, tarjimon volontyor, stajyor volontyor, targ’ibotchi volontyor, korporativ volontyor va boshqalar. Bundan ko‘rinib turibdiki, ijtimoiy volontyorlik dunyo bo‘ylab keng tarqalgan volontyorlik turlaridan ekan.

Materiallar va usullar. Ijtimoiy sohani rivojlantirishda volontyorlikning jamiyat va davlat uchun muhim tomonlarini haqqoniy ilmiy tadqiq etilgan. Respublikaning barcha hududlaridan faol yoshlar saralab olingan va ular o‘rtasida sanoq usulida so‘rovnoma o‘tkazilgan. So‘rovnoma anketasi O‘zbekistonda ijtimoiy soha va volontyorlikda yoshlar ishtiroki baholangan, o‘rganilgan, tahlili etilgan va nazariy asoslangan. Bu birlamchi ma’lumotlar tahliliy tadqiqot orqali mavjud ma’lumotlarni tahlil qilish va yangi bilim yaratishni o‘z ichiga oladi. Bu usullar orqali, yangi takliflar va volontyorlik tushunchasiga berilgan takliflar ham ko‘rib chiqilgan. Amerikalik sotsiolog **George Homans** va **Peter Blau** tomonidan ilgari surilgan insonlar boshqalarga yordam berish orqali ijtimoiy kapital to‘plashini ilgari surganlar. **August Comte** va **Daniel Batson** altruizm tushunchasi asoslagan bo‘lsa, Ijtimoiy kapital nazariyasini rivojlantirgan **Pierre Bourdieu, James Coleman** va **Robert Putnam** buni tasdiqlagan.

Hozirgi kunda, ijtimoiy volontyorlik, madaniyat volontyorlik, sport volontyorlik, xalqaro volontyorlik, korporativ volontyorlik, media volontyorlik, onlayn volontyorlik, stajyor volontyor, pro volontyorlik sohalari haqida ham ilmiy izlanishda ko‘rib chiqilgan. Ijtimoiy ta’sir kuchga ega va ijtimoiy birlikni amalga oshiruvchi volontyorlar ijtimoiy drayver vazifasini o‘taydi.

Natijalar va muhokamalar. O‘zbekistonda volontyorlikka qiziquvchilarning deyarli katta qismini yoshlar tashkil etadi. Ular volontyorlik loyihalarda turlicha rollarda ishtirok etadilar. Loyiha rahbari yoki lideri, koordinatori (tashkilotchi) va



SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025

ishtirokchi sifatida qatnashadi. Eng qiziq tomoni, ularning ijtimoiy ta'siri ham ularning roliga bog'liq. Loyihada liderlik qilayotgan volontyor albatta qo'l ostida bo'lgan o'z jamoasini doimiy nazorat qilishi, resurslarni taqsimlashi va ishlarni rejalashtirishi zarur bo'ladi. Bu liderda ijtimoiy muloqotchilik, tashabbuskorlik, uddaburonlik va motivatsiya berishi kabi mahoratlarga egalini ko'rsatib berish orqali o'z jamoasiga ichki ijtimoiy ta'sir etadi. Lider tomonida tashkil etilgan loyiha esa, qaysidir manfaatdor guruhga foydasi tegishi natijasida tashqi ijtimoiy ta'sir etishini ko'rish mumkin. Misol uchun, bepul o'quv dasturlar tashkil qilish orqali aholining bilim darajasini oshirishga xizmat qiladigan loyiha yaratishi mumkin.

Ijtimoiy volontyorlar eng avvalo volontyorning o'zi, volontyorlik jamoalari yoki tashkilotlar orqali ijtimoiy xizmatlarni amalga oshirish muassasalarida faoliyat olib borishi mumkin. Quyidagilar:

Ta'lim muassasalarida: inklyuziv maktabgacha ta'lim muassasalari, internat maktablar.

Sog'liqni saqlash muassasalari: Onkologiya markazi, Nogironlar uchun reabilitatsiya markazlari, Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish Respublika markazini.

Ijtimoiy muassasalari: Mehribonlik uyi, Bolalar uyi, “Saxovat” va “Muruvvat” internat uylari, foster oila, patronat-oilaga tarbiyaga olish, oilaviy turdagi bolalar uylari, sheltirlar, xospis markazi,

Davlat tashkilotlari: Ijtimoiy himoya milliy agentligi, O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Pensiya, inson markazi, bandlikka ko'maklashish markazi.



SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025

Xalqaro va nodavlat notijorat tashkilotlari: SOS, YUNISEF,
O‘zbekiston nogironlar jamiyati, Sharoit plyus.

Ijtimoiy xizmat - odamlarning turmush sharoitini yaxshilash, zarur moddiy - ma'naviy resurslar bilan ta'minlash, doimiy, davriy, bir martalik yordam, shu jumladan shoshilinch yordam ko'rsatish bo'yicha ijtimoiy xizmatlar sohasidagi harakat yoki faoliyatdir [5]. Shunday qilib, samarali va professional volontyorlik xizmati yo'lga qo'yilsa, ijtimoiy muammolarda qulayliklar va sifatli ishlash boshlanadi. Buning uchun volontyordan talab etiladigan mahoratlardan: Psixologik to'siqlarni olib tashlash va muomala madaniyatiga ega bo'lish; qo'rquv va xavotirlardan qutilish; hurmat qilish; tushunish va kommunikativlik; kiyinish madaniyati; rolga kirish va roldan chiqish; ijobiy ta'sir ko'rsatish mumkin. Bular tajriba va amaliyot davomida ham egallash mumkin. Eng muhimi, ijtimoiy faollik ko'rsatib, boshqalar uchun yaxshi ta'sirotlar qoldirishdir.

Ijtimoiy volontyorlar ijtimoiy sohada xayriya ishlari, ma'naviy yordam, texnik yordam, konsultativ yordam, amaliy yordam, moddiy yoki moliyaviy yordam va boshqa ishlari orqali o'z hissalarini qo'shishlari mumkin. Bu yordamlarni davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari orqali amalga oshiriladi. Misol uchun, O'zbekistonda rasman ro'yxatga olingan o'zgarlar parvarishiga muhtoj yolg'iz keksalar 3 615 nafar va yolg'iz nogironligi bo'lgan shaxslar 1 359 nafar tashkil etadi. Bularga asosan, o'z uyida ijtimoiy volontyorlar yordami juda zarur ya'ni yuqoridagi ishlar orqali ko'mak beradilar [6].

Hech qachon volontyor bo'lmagan odamlar bilan solishtirganda, "Juda baxtli" bo'lish ehtimoli har oyda volontyor bo'lganlar orasida 7 foizga va har ikki-to'rt haftada volontyor bo'lganlar uchun 12 foizga oshdi. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, haftalik volontyorlar orasida 16% o'zlarini juda baxtli his qilishgan - bu baxtning o'sishi. (Simple Changes, Big Rewards: Sog'lom va baxtli hayot uchun



SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025

amaliy, oson qo‘llanma, Garvard Health Publications tomonidan chop etilgan maxsus sog‘liqni saqlash hisoboti)da keltirilgan [7].

O‘zbekistonda ijtimoiy soha juda tez sur‘atlarda rivojlanmoqda "Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi", “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi, “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni bilan tashkil etildi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Volontyorlik faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 11-aprel, 169-sonli qarori qabul qilindi. Yuqoridagi muhim ijtimoiy o‘zgarishlar ortida ijtimoiy volontyorlarning nechog‘lik kerak ekanligidan dalolat beradi.

Xulosalar. Birinchidan, O‘zbekistonda volontyorlik jamoalari uchun grantlar va ijtimoiy subsidiyalar ajratish kerak.

Ikkinchidan, Volontyorlik forum va sammitlarni keng jamoatchilik bilan tashkil etish hamda rivojlantirish lozim. Bu ishlar ijtimoiy volontyorlik faoliyati uchun motivatsiya va rag‘batlantirish bo‘lishi lozim.

Uchinchidan, Volontyorlik tashkilotlari, volontyorlik jamoalari va volontyorlar faoliyatini jamlovchi yagona platforma ishlab chiqish kerak. Bu platforma ezgu.uz bo‘lishi mumkin. Chunki, nomi juda mos va yaxshilik uchun o‘ziga xos tartibda joylashgan.

Har bir odam volontyorlik tajribasiga ega bo‘lishi lozim. Chunki ijtimoiy muammolarga yechim topadi va insonlarga nisbatan iliq munosabatda bo‘la boshlaydi. Eng asosiysi, yaxshilik qilish nechog‘lik muhim ekanligini tushunib



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025**

yetadi. Kelajakda fantastik dunyo kirib kelar ekan va unga qo‘shilib mehrsizlik, o‘zini o‘ylash, xudbinlik ham bo‘lishi mumkin. Ammo shu vaqtda volontyorlik hammani ezgulik osmoni ostida birlashishga olib keladi [8].

Volontyor bo‘lganingizda qayerda va qanday sharoitda bo‘lsangiz ham odamlar bilan birgasiz. Doim odamlar bilan, doim ular bilan aloqada va muomalada bo‘lasiz. Shuning uchun umringizni oxirigacha ijtimoiy hayotdan aslo uzib qolmaysiz. Bu soha sizning umringiz oxirigacha birga bo‘ladi. Demak, ijtimoiy soha hayotimizning asosiy qismini tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. <https://mosvolonter.ru> – Mosvolonter - bu Rossiyadagi eng yirik volontyorlar jamoasidan biri bo‘lib, hozirda Moskvada faoliyat olib boradi.
2. “Volontyorlik harakati – ezgulik vaksinasi” ISSN 2181-9556 Doi Journal 10.26739/2181-9556 IJTIMOY TADQIQOTLAR JURNALI 1-MAXSUS SON, Toshkent-2024 (<https://tadqiqot.uz/index.php/soci/article/view/9051>)
3. <https://www.worldpackers.com/articles/social-volunteering> - Braian Ludueñaning “What is social volunteering and how can I make a positive impact?” maqolasi 2023 yil
4. https://en.wikipedia.org/wiki/Social_services - Wikipedia
5. <https://ihma.uz/uz/ochiq-malumotlar/> - Ijtimoiy himoya milliy agentligi
6. Simple Changes, Big Rewards: Sog‘lom va baxtli hayot uchun amaliy, oson qo‘llanma, Garvard Health Publications tomonidan chop etilgan maxsus sog‘liqni saqlash hisoboti. 2022 yil



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025**

7. “O‘zbekistonda volontyorlik - tarixiy bosqichi” O‘zbekiston Milliy universiteti “Zamonaviy dunyoning ijtimoiy manzarasi va jamiyat tuzilmalari transformatsiyasi” nomli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallar to‘plami 2024 yil 20 aprel <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-volontyorlik-tarixiy-bosqichi>
8. “O‘zbekistonda Volontyorlik” (uslubiy qo‘llanma) Nashriyotchi: GlobeEdit Dodo books Indian Ocean Ltd. and OmniScriptum S.R.l nashriyot guruhi. 120 High Road, Sharqiy Finchley, London, N2 9ED, Birlashgan Qirollik ISBN: 978-620-0-63733-8 <https://www.morebooks.shop/shop-ui/shop/book-launch-offer/9634373f8e70a257f3036bda32d16d422c74670f>